



**Loyiha rahbari:**  
PhD, dots. Sayfullayev Anvar Islamovich  
**E-mail:** anvars-sayfullaev@mail.ru  
**Tel:** +99894 695 20 75

**Loyihaning maqsadi:** № IZ-2021020813 raqamli amaliy loyiha buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodining horijda o'rganilishi va targ'iboti, dunyo navoiyshunosligida shoir asarlari ustida olib borilgan va bugungi kunda ham davom yetayotgan tadqiqotlarni jamlash talablaridan kelib chiqib, fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda Alisher Navoiy ijodining horijiy olimlar tomonidan o'rganilishi va targ'ibot yetilishi asosida ko'p tilli multimedia to'plamini yaratish, dunyo navoiyshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarni audio va videomateriallar orqali o'zbek, ingliz, fransuz, arab va fors tillarida taqdim yetish va Alisher Navoiy hayoti va ijodini targ'ib qilishga bag'ishlangan ko'p tilli multimedia to'plami orqali o'zbek adabiyotini va boy milliy-ma'naviy merosimizni dunyo miqyosida keng targ'ib yetish loyiha maqsadiga kiradi.

**Loyihaning qisqacha tavsifi:** Multimedia to'plami juda katta materiallar bazasini o'zida jamlaydi va kelgusida shu turdag'i ilmiy tadqiqotlar uchun manba vazifasini o'taydi.

Mazkur tadqiqot ustida ilmiy jamoa tomonidan dastlabki qadamlar tashlangan bo'lib, hozirgi kunga qadar Navoiy ijodining Rossiya, Ozarbayjon, Turkiya, Eron adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilishi haqidagi materiallar jamlangan. Mazkur yo'nalishdagi ishlar jadal davom ettirilmoqda.

Ijrochilar tarkibida o'z sohasining ustasi bo'lgan tarjimon, ijodkor, adabiyotshunos olimlar, dasturchi va dizaynerlarning mavjudligi materiallarni zamonaviy usullarda qiziqarli tarzda taqdim etish imkonini beradi.

Kelgusida ko'p tilli multimedia to'plamidan o'rinni olgan materiallarni o'zbek, ingliz, fransuz, arab va fors tillaridan boshqa tillarga ham tarjima qilish, shu orqali Alisher Navoiy ijodini jahon miqyosida yanada kengroq targ'ib qilish rejalashtirilgan.

**Kutilayotgan natija:** Alisher Navoiy ijodining horijiy olimlar, shoirlar, muxlislar tomonidan targ'ib qilishga bag'ishlangan kontentda ular haqida videorolik, taqdimot va boshqa multimedia mahsulotlari joylanadi va mamlakatimizdagi ichki va tashqi turizmni rivojlantirish maqsadida ularning jozibadorligini aks ettiruvchi maxsus videoroliklar yaratiladi;

- Alisher Navoiy ijodining horijda o'rganilishi yangi tahlil asosida to'plangan materiallar bilan alohida kontentga joylashtiriladi va unga doir ko'p tilli maqolalar, risolalar, nashrlar va multimedia dasturiy mahsulotlari yaratiladi;

- Alisher Navoiy ijodining horijda o'rganilishi va targ'ibotiga bag'ishlangan ko'p tilli multimedia orqali boy milliy-ma'naviy merosimizni dunyo miqyosida o'rganilishi ko'rsatib beriladi. Har bir kontent ilmiy tahlillar, tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi va har bir kontent bo'yicha magistrlik va bitiruv malakaviy ishlari amalga oshiriladi;

- "Alisher Navoiy ijodining horijda o'rganilishi va targ'iboti" nomli monografiya nashrga tayyorlanadi va u multimediaga joylashtiriladi;

Kompyuter grafikasi asosida 3D videotasvirlar yaratiladi.

**Qo'llanish doirasi:** Ushbu loyihaning amalga oshishi Alisher Navoiy ijodining jahon adabiyoti durdonalaridan biri ekanligi hamda navoiyshunoslik sohasida ish olib borgan, borayotgan olim, shoir, muxlislarni jahonga tanitish, navoiyshunoslikni rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, Navoiy ijodiga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash, navoiyshunoslikka bo'lgan iqtidorni namoyon etishga xizmat qiladi. Loyiha

yaratilgan ko'p tilli multimedia mahsulot va nashr etilgan adabiyotlarning ichki va tashqi bozorda sotilishiga imkon beradi.

**Amalga oshirish:**

2021-2023-yillarga mo'ljallangan № ИЗ-2021020813 raqamli ““Alisher Navoiy ijodining horijda o'rganilishi va targ'iboti asosida ko'p tilli multimedia to'plamini yaratish” amaliy loyiha doirasida (700 000 000 so‘m)